

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Saydullayeva Ra'no Nasrullayevna, Abduraimova Xolida Abdusalimovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYANI O'QISHGA BAG'ISHLANGAN ISH TURLARI VA QAYTA HIKOYALASH	7
2. Bozorova Gulnoza Axatovna O'QISH DARSLARIDA INNOVASTION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	9
3. Ro'zmetova O'g'iljon ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	11



АДАБИЁТ

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYANI O'QISHGA BAG'ISHLANGAN ISH TURLARI VA QAYTA HIKOYALASH

Saydullayeva Ra'no Nasrullayevna

Navoiy viloyati Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: 998 971557105

Abduraimova Xolida Abdusalimovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: 998 933142579

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoyani o'qishga bag'ishlangan asosiy ish turlari, qayta hikoyalash metodini tashkil etish haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Janr, syujeti, izohli o'qish, taqqoslash, muhokama, tahlil, savollar, “Matn yaratish”, “Davom ettir”, qism, sarlavha,

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. SHuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi qahramonlar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchilar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab etadilar. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o'zaro bog'laydi, bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi qahramonlar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. SHuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldigan keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri



bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. SHundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Masalan 4-sinf o'qish fanidan Sunatilla Anorboyevning “Qo‘rqoq” hikoyasining 1-qismini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi avval matnni o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitadi. Keyin o‘quvchilarga darslikdagi savollarni o‘qitib, ularga javob berishadi:

-Bolalar nima uchun Bahromni “Qo‘rqoq” deb atashardi?

-Bahrom nega kechqurun yo‘lga otlandi?

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblari to‘ldirib, umumlashtiradi. Hikoyaning 1-qismini bolalarga qayta ijodiy hikoya qildirish maqsadida “Matn yaratish” o‘yini tashkil etiladi. O‘yin tartibi quyidagicha bo‘ladi: Ekranda hikoya mazmuni asosida yozilgan matn ko‘rsatiladi. Matndagi gaplarning o‘rni almashgan bo‘ladi. O‘quvchilar ularni ketma-ket bosib matnni o‘z holiga keltiradilar. Bu jarayonda bolalar ijodiy ravishda hikoya matnini qayta tuzadilar va ularga hikoyani og‘zaki ravishda aytib beradilar.

4-sinfda Nosir Fozilovning “Yaxshi bo‘ldi” hikoyasini o‘rganishda o‘qituvchi hikoya ifodali o‘qib beradi. Keyin hikoyada uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi. O‘quvchilarga hikoya birin-ketin o‘qitiladi. Keyin “Davom ettir” usulidan foydalanib, o‘quvchilarga hikoyani qayta og‘zaki hikoya qiladi. Bu usulda hikoya matnining xatboshisi asosida o‘quvchilar qayta o‘g‘zaki hikoya qiladilar.

O‘qilgan hikoya mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalagandan so‘ng hikoyaning rejasini tuzish ishi bajariladi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Sarlavha topish ustida ishlash, o‘quvchilar topgan sarlavhani jamoa bo‘lib muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o‘zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘qish” fanidan o‘quv dasturi. T. 2017-yil.
2. “O‘qish kitobi” 4-sinf uchun elektron darslik. T. 2017-yil.
3. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari. RTM, 2016-yil



О‘QISH DARSLARIDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Bozorova Gulnoza Axatovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar

17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: 998 906472001

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda kompetensiyani shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Badiiy asar, mustaqil fikrlash, metodlar, usul, mashqlar, didaktik o‘yinlar, guruhlar, Qosimjon, Muhabbat, Tohir, muammoli vaziyat.

Bolalarni kichik yoshdan jamiyatda yuz berayotgan voqelikka erkin munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash, tafakkur olamini kengaytirishda badiiy asarlar muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi”da badiiy asar turlaridan hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o‘rganiladi. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop maqolalar ham o‘qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, stilistik uslublari jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarga ta‘siri ham har xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchi unga mos metodlar tanlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qish darslarida mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim mazmunida o‘ziga xos hamda o‘quvchi shaxsida mos kompetensiyani shakllantiradi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyani shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabidir.

“O‘qish” fanini o‘qitishda “Bumerang” texnologiyasi, “Arra”, “O‘z o‘rningni top”, “FSMU”, “Nima uchun?”, “Ikki qismli kundalik”, “Aqliy hujum” kabi metodlar, “Pinbord” usuli, “She‘rni tikla” kabi mashqlar, didaktik o‘yinlardan foydalanish dars samaradorligini yanada oshiradi.

4-sinfda Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Xatosini tushungan bola” hikoyasini o‘rganishga 2 soat ajratilgan. Ikkinchi darsda hikoyaning 2-qismi o‘rganishda “Guruhlarda ishlash” usulidan foydalaniladi. Sinf o‘quvchilari 4 guruhga bo‘linadi va ularga hikoya matnlari bo‘lib beriladi. Har bir guruhdagi o‘quvchilar matnlarni qunt bilan o‘qiydilar. So‘ngra guruh ichida yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a‘zolari o‘zlari o‘qigan matnlarni sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So‘ngra guruh a‘zolari oldingi holatdagi guruhlariga qaytishadi. Keyin yangi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi:

- Qani ayting-chi, sizningcha, devoriy gazetada Qosimjonning rasmi to‘g‘ri tasvirlanganmi?
- Qosimjon rasmi devoriy gazetaqa chiqqandan keyin o‘zini qanday his qildi?
- Bolalar, Qosimjonning Muhabbatga nisbatan munosabatini bir o‘ylab ko‘ring.
- Qanday voqea sabab sinf majlisi o‘tkaziladigan bo‘ldi?
- Bolalar, Qosimjon majlisdan qochganini va o‘ziga asalli berib yurganini qanday baholaysiz?
- Sinf rahbar va maktab direktorining gaplaridan Qosimjon qanday holatga tushdi?
- Sinfdoshlari Qosimjonga qanday munosabatda bo‘lishdi?
- Tohirni Qosimjonning haqiqiy do‘sti deya olamizmi?
- Qosimjon Muhabbatning tug‘ilgan kuniga borganini to‘g‘ri deb o‘ylaysizmi?

Savollarga turli javoblar eshitilgandan keyin o‘qituvchi bolalarga: “Keling, ana shu hikoyani davom ettirib ko‘ramiz. Qosimjon sizningcha endi nima qiladi? Nima uchun?”

Bolalar hikoyani davom ettirib, o‘z fikrlarini aytgandan so‘ng o‘qituvchi o‘z xulosasini bildirishi mumkin. Yuqoridagi savollar orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatga tushdi. O‘quvchilarga har qanday muammoni hal qilishda atrofdagilarning ta‘siri kerakligini his qilish, o‘zaro muammoni hal qilish malakalarni oshirish, eshitish, tahlil qilish, ma‘lum bir vaziyatlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish ularning tafakkur olamini kengaytiradi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu hikoya orqali o‘quvchilar xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo‘lganligi, maqtanchoqlikning illati ekanligi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi.

4-sinfda Mirtemirning “Qush tili” she‘rini o‘rganishda “Javobini matndan top”, “Xotira o‘yini”, “Kim ko‘p qushlar nomini biladi?” o‘yinlaridan foydalanish o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini



o‘stirishda, tabiat olamiga va qushlarni sevishga, ularni asrab-avaylashga o‘rgatishda samarali usul hisoblanadi.

“Qush tili” she’ri bo‘yicha mustahkamlash darsida o‘quvchilar bilan “Kim she’rni ifodali o‘qiydi?” musobaqasini qatorlararo o‘tkaziladi. O‘quvchilarning hammasi she’rni o‘qiydi. Musobaqa so‘ngida har bir qatorda nechta o‘quvchi ifodali o‘qigani e’lon qilinadi va ko‘p ifodali o‘qigan qator g‘olib sanaladi.

Darslarda ko‘proq ularni qiziqtirish uchun innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan, o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan o‘quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaati bilan hisoblashish, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish, o‘zining va boshqalarning “men”nini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish fikrini aniq, lo‘nda va puxta bayon eta olishga o‘rgatishdan iboratdir.

O‘qish darslarida innovastion texnologiyalardan foydalanish ularda nutqiy, aqliy, fikriy holatlar rivojlanadi, bilim, ko‘nikma va malakalar tez shakllanadi. Chunki o‘qish darslarining to‘la mazmuni o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirishga, ma’naviy olamini boyitishga qaratilgan. Shuning uchun o‘qish darslarida innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalinilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha “O‘qish” fanidan o‘quv dasturi. T. 2017-yil.
2. “O‘qish kitobi” 4-sinf uchun elektron darslik. T. 2017-yil.
3. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari. RTM, 2016-yil
4. A. Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, “Ta’limda innovatsiya” T;. 2010-y.
5. 4-sinf “O‘qish kitobi” bo‘yicha metodik qo‘llanma. T. 2017-yil.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Ro‘zmetova O‘g‘iljon,
Xorazm viloyati
Xonqa tumani 8-maktab
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
Telefon: +998978587922

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko‘pgina fazilatlarini ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik g‘oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyoti xazinasiga o‘zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo‘shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g‘oyalari hamohang bo‘lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A. Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko‘pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqbol yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o‘rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma’noda, A. Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o‘rinlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o‘tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta’sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo‘lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko‘proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo‘lib, davr voqeligi tasviriga bag‘ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo‘lib o‘tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko‘raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo‘ja domla, shahar maorif bo‘limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o‘ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo‘ja domla xarakteri jonli va to‘laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo‘lgan dramaturgiya sohasida ham iste’dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko‘targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo‘lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og‘riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo‘ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta’sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo‘ziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o‘jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o‘xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og‘riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo‘liga to‘siq bo‘layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo‘lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog‘liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ‘ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo‘lishini ko‘rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga



erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan, adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000